

YANGI IJTIMOYIY-IQTISODIY JARAYONLARDA O‘ZBEK TEATRI BOSHQARUVI

Kamoliddin Umarov

*O‘zDSMI “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng madaniy hayotimizning muhim sohalaridan biri bo‘lgan teatr san’atida ham tub islohotlar yuz berdi. Xususan, teatrlarning ma’muriy, boshqaruv faoliyatida bir qancha o‘zgarishlar, yangiliklar amalga oshirildi. Davlatimiz tomonidan davr ruhini anglash, milliy mafkura va milliy qadriyatlarimizni teatr sahnasida aks ettirishga e’tibor kuchaydi. Ushbu maqolada yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda o‘zbek teatri boshqaruvi masalalari tahliliy ravishda bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, o‘zbek teatri, boshqaruv, menejment, ijtimoiylashuv, bozor iqtisodiyoti, boshqaruv, spektakl, ma’naviyat.*

УПРАВЛЕНИЕ ТЕАТРОМ УЗБЕКИСТАНА В НОВЫХ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ

Аннотация: *После обретения Узбекистаном независимости коренные реформы произошли и в театре — одной из важнейших сфер нашей культурной жизни. В частности, ряд изменений и нововведений был реализован в административно-управленческой деятельности театров. Наше государство уделяет повышенное внимание пониманию духа времени и отражению на театральной сцене нашей национальной идеологии и национальных ценностей. В статье аналитически рассматриваются вопросы управления узбекским театром в новых социально-экономических процессах.*

Ключевые слова: *Социально-экономические процессы, узбекский театр, управление, менеджмент, социализация, рыночная экономика, администрирование, исполнение, духовность.*

THEATRE MANAGEMENT OF UZBEKISTAN IN NEW SOCIO-ECONOMIC PROCESSES

Annotation: *After Uzbekistan gained independence, fundamental reforms took place in the theater, one of the most important spheres of our cultural life. In particular, a*

number of changes and innovations were implemented in the administrative and management activities of theaters. Our state pays special attention to understanding the spirit of the times and reflecting our national ideology and national values on the theater stage. The article analytically examines the issues of managing the Uzbek theater in new socio-economic processes.

Key words: Socio-economic processes, uzbek theatre, management, socialization, market economy, administration, performance, spirituality.

Hammamizga yaxshi ma'lumki, inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ong-u tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

O'zbek teatri tarixiga nazar tashlasak, barcha davrlarda ham teatr san'atini boshqarish, nazorat qilish va undan o'z mafkurasi yo'lida foydalanish hukumat uchun dolzarb ahamiyat kasb etganiga guvoh bo'lamiz. "1917-yil oktabr to'ntarishi Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan o'lkalar, shu jumladan, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida ham keskin burilish davrini boshlab berdi. O'lkadagi taraqqiyparvar ziyolilar mamlakat taraqqiyoti yo'lida faol harakat qildilar. Ushbu jarayonda madaniy masalalar ham ularning e'tiboridan chetda qolmadi. Madaniyatning ajralmas bo'g'ini bo'lgan teatr sohasi sovet tuzumining o'rnatilishi bilan yangi ko'rinishda targ'ibot-tashviqot ishlarining muhim bo'lagi sifatida asosiy o'ringa chiqdi"¹¹. Darhaqiqat, Turkistonda sovet hukumati o'rnatilgandan keyin teatr truppalari to'liq davlat ixtiyoriga o'tdi, sohaga doir qator qaror va buyruqlar qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – teatr san'atini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish, xalq orasiga keng tatbiq etish va shu orqali kommunistik tuzum mafkurasini ilgari surish edi. Sovet hokimiyati o'z g'oyalarini targ'ib qilish va xalq ongu tafakkurini boshqarishda teatr san'ati g'oyat zarur va qudratli mafkuraviy qurolga aylanishini anglab yetishdi.

1936-yilga kelib, Turkistonda san'at ishlari boshqarmasi tashkil etiladi. Shu vaqtga qadar teatr san'atiga tegishli rasmiy hujjatlar tarqoq holatda bo'lib, boshqarma tashkil etilgach, bu jarayon tizimli holatga keladi. Boshqarma mintqa hududidagi barcha teatr truppalari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

1953-yilga kelib, boshqarma Madaniyat vazirligining San'at ishlari bosh boshqarmasi sifatida qayta tashkil etiladi. Ushbu boshqarmada teatr san'atiga doir yillik rejalar, hisobotlar, majlis bayonnomalari va boshqa rasmiy hujjatlar saqlanadi. Mazkur

¹¹ Nazarova S. XX asr 20-30-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zbek sahna san'atiga ta'siri. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2024. – B.10.

hujjatlar teatr san'ati hukumat tomonidan kuchli nazorat qilingani, doim diqqat-markazida bo'lganidan dalolat beradi.

Xo'sh, istiqlol yillari o'zbek teatri boshqaruvida sovet davridan farq qiluvchi qanday o'zgarishlar kuzatildi? Professor N.Sayfullayev ayni masala yuzasidan mulohaza yuritarkan, shunday yozadi: "Yuqoridan beriladigan ko'rsatmalar, taftish qilishlar va umumsovet madaniyati tazyiqi ostida ijod qilishga ko'nikma hosil qilgan ba'zi teatr jamoalari erkinlik sharoitida nima qilishlarini bilmay gangib qoldilar. Mustaqillikning birinchi o'n yilligida bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat qaramog'idagi teatrlar sonini qisqartirishni emas, balki teatrlarning yaxshi an'alarini saqlagan holda faoliyatlarini butkul qayta tiklash, o'zgartirish asosiy masalalardan biri bo'ldi"¹². Darhaqiqat, sovet tuzumi yillari O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotining deyarli barcha jabhalari yuqoridan, ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarilgan. Respublikadagi mavjud teatrlarning repertuari sovet ideologiyasi va sotsialistik realizm qonuniyatlariga muvofiq kelishi, davrning ijtimoiy-mafkuraviy talablariga javob berishi lozim edi. "Xullas, boshqaruv har tomonlama izdan chiqqan, teatrlarda ijodiy muhit buzilib, an'alar yo'qolgan, parokanda ahvolga kelib qolgan bir zamonlar edi. Jamiyatdagi sarosimalik teatrlar repertuarida ham o'z aksini topa boshladi. O'sha davr kayfiyatini o'ziga to'liq singdirgan siyosiy-publitsistik xarakterdagi pyesalar butun sobiq ittifoq teatrlari bo'ylab aylanib yurdi"¹³. Shunday murakkab davrda ijod qilgan bo'lishiga qaramay, teatrlarimiz milliy va jahon dramaturgiyasining mumtoz namunalarini muvaffaqiyatli sahnalashtirdi, o'zbek sahnasining abadiyatga daxldor namunalari yaratildi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng teatrlar boshqaruvini tizimli yo'lga qo'yish, ularning ijodiy faoliyatini milliy istiqlol g'oyasi va qadriyatlarimizga hamohang tarzda shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. Ya'ni, sovet tuzumi davridagi boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik shaklidan voz kechish, boshqaruv mexanizmining yangi standart va mezonlarini joriy etishga alohida ahamiyat qaratildi. Albatta, bu jarayon oson kechmadi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Istiqlolning ilk yillari bozor iqtisodiyoti sharoitida teatrlar murakkab jarayonni boshdan kechirdi. Ular nafaqat spektakl sahnalashtirishi, balki o'z ijodiy mahsulotlarini sota olishi ham lozim edi. Natijada aksariyat teatrlar mumtoz asarlar bilan birga maishiy mavzudagi, yengil auditoriyaga xizmat qiluvchi spektakllar sahnalashtirishga majbur bo'lishdi. Tabiiyki, teatrlarning repertuar siyosati boshqaruv strukturasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Sababi, ijodiy faoliyat va boshqaruv tushunchalari bir-biriga uzviy bog'liq

¹² Sayfullayev N. Yangi davr O'zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2011. – B.122-123.

¹³ Rizayev O. "Sahnada zamon ruhi". San'atshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami 2024. B.12.

bo'lib, boshqarish mexanizmi to'g'ri va maqsadli yo'lga qo'yilsagina, teatr samarali ishlaydi. "Teatr boshqaruvini samarali tashkil etish uchun quyidagi talablar bajarilishi zarur:

- taqdim etilgan xizmatlar barcha fuqarolar uchun jismoniy jihatdan ma'qulligi;
- zalning va teatrga kirish qulayligi; ”
 - teatr mahsulotlarini tahlil qilish va bozorni segmentlash texnologiyalari;
- omoshabin haqida ma'lumot to'plash uchun so'rovnoma;
- tomoshabinlarning afzalliklarini aniqlash uchun so'rovnoma;
- chipta savdosini oshirish uchun so'rovnoma;
- aniqlangan his-hayajon gaplarni filtrlash;
- teatr xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va uzluksiz ta'limi;
- iste'molchilarga xizmat ko'rsatuvchi va tarbiyalovchi teatr binosidan tashqarida o'tkaziladigan dasturlar tashkil etilishi va hokazolar”¹⁴.

Shu nuqtayi nazardan teatrlarning boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish zarur ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998-yil 26-martdagi "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi tarixiy farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarorlari bu islohotlarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

"O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasining tashkil etilishi natijasida respublikadagi mavjud teatrlar faoliyatini tizimli boshqarish va muvofiqlashtirish imkoniyati tug'ildi. Birlashma teatr, teatr-studiyalari va alohida ijodkorlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiruvchi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi mustaqil muassasa sifatida tashkil etildi. "O'zbekteatr" birlashmasi milliy teatr san'atining boy an'analari va yutuqlarini asrab-avaylash va rivojlantirish, kishilarning ma'naviy kamolotida teatr san'atining o'rnini yuksaltirish, zamon talablari darajasidagi sahna asarlari yaratish, ularda milliy an'alarimizni ulug'lash orqali umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etish, jahon teatr san'ati sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlardan unumli foydalanish, ijodkorlarni iqtisodiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun kuch va mablag'larni birlashtirish maqsadida tashkil etildi”¹⁵. O'zbek xalqining asrlar davomida avlodlardan avlodga noyob meros sifatida o'tib kelayotgan teatr va tomosha san'ati an'alarini boyitish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom hislarini oshirish, mamlakatimizdagi mavjud teatrlar

¹⁴ Fayziyev T, Xolmo'minov M. Teatr faoliyatida boshqaruv jarayonlarini tashkil etish usullari // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. 2022 yil 2-son. – B.57.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori. Toshkent sh., 1998-yil 22-may, 223-son. // <https://lex.uz/docs/819775>.

yo'nalishlarini belgilash, yangi badiiy jamoalar tuzish, boy an'analarga tayangan holda jahon andozalari darajasidagi zamonaviy milliy teatr san'ati maktabini yaratish, o'z tarkibidagi ijodiy jamoalarning tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnika masalalarini hal etish, ularni zamonaviy texnika vositalari, zarur ashyolar bilan ta'minlash, O'zbekiston teatr san'atini mamlakatimizda va chet ellarda targ'ib etish, gastrol faoliyatini uyushtirish va muvofiqlashtirish, teatr san'ati sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish birlashmaning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

“O'zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tarkibiga respublikadagi mavjud teatrlar, teatr-studiyalari, “Artmadad” maxsus jamg'armasi, “Teatr” jurnali tahririyati, Teatr ijodkorlari uyushmasi, Aktyorlar uyi singari tashkilotlar kiritildi. Birlashma mazkur tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan birga ularning ijodini qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor qaratdi. Birlashmaning shtatlar jadvali quyidagicha taqsimlandi: Bosh direktor (1), Bosh direktor o'rinbosari (2), kadrlar bo'limi (1), yuridik xizmat (1), teatrlar ijodiy faoliyatini muvofiqlashtirish va shakllantirish boshqarmasi (4), iqtisodiyot, moliyalashtirish, hisob-kitob va moddiy-texnik ta'minot boshqarmasi (4), axborot, reklama va tijorat bo'limi (3). Tashkilot zimmasiga teatr san'atiga doir barcha masalalarni kompleks tarzda hal qilish vazifasi yuklatildi. “Teatrlar ijodiy faoliyatini muvofiqlashtirish va shakllantirish boshqarmasi” tashkilotning asosiy boshqarmalaridan biri bo'lib, unda dramaturglar bilan ishlash, pyesalarga taqriz berish va sahnalashtirish uchun tavsiya qilish, repertuarlarni shakllantirish singari muhim jarayonlar amalga oshirildi. Ta'kidlash o'rinliki, mahalliy dramaturglarning ko'plab asarlari ushbu boshqarma mutaxassislari tomonidan baholanib, respublika teatrlariga tavsiya qilindi.

Shuningdek, boshqarmada respublikada faoliyat ko'rsatayotgan 37 ta teatrning repertuari to'liq muvofiqlashtirildi. Ya'ni, teatrlarda sahnalashtirilayotgan spektakllar, ularning badiiy-g'oyaviy xususiyatlari, janr va yo'nalishi tahlil qilinib, hisobot materiallari tayyorlandi. Teatrlar faoliyatini kvartal, yarim yillik va yillik monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yildi. Boshqarma mutaxassislari respublika teatrlarida sahnalashtirilayotgan spektakllarning jamoatchilik ko'riklarida ishtirok etishdi va spektakllarni takomillashtirish jarayonida faol qatnashishdi.

“Iqtisodiyot, moliyalashtirish, hisob-kitob va moddiy-texnik ta'minot boshqarmasi”da teatrlar faoliyatiga doir iqtisodiy, moliyaviy masalalar tahlil qilindi va zaruriy hisobotlar tayyorlandi. “Axborot, reklama va tijorat bo'limi”da teatrlarning reklama, marketing masalalari tahlil qilindi. “O'zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasini Bosh direktor boshqaradi. Shuningdek, Bosh direktor o'rinbosari lavozimi ham ta'sis etildi. Ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillari mamlakatimizda teatrlar faoliyatini muvofiqlashtiradigan, nazorat qiladigan maxsus boshqaruv muassasasining tashkil etilishi e'tiborga molik

hodisa edi. Tashkilotning ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi sifatida tuzilgani ham bejiz emas edi. Zero, sovet davridagi singari teatrlarni ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarish tizimi o'rniga ijodiy erkinlikka asoslangan yangi boshqaruv shaklining yo'lga qo'yilishi g'oyat muhim hodisa bo'ldi.

Istiqlol yillari o'zbek teatri erishgan yutuqlar, amalga oshirilgan islohotlarda "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasining xizmatlari katta bo'lganini e'tirof etmoq lozim. Mamlakatimizda tashkil etilgan mahalliy va xalqaro teatr festivallari, yurtimiz va xorij teatr ijodkorlarining gastrol safarlari va boshqa madaniy tadbirlarni o'tkazishda tashkilot alohida jonbozlik ko'rsatdi.

"O'zbekteatr" birlashmasi uzoq yillar davomida respublikadagi mavjud teatrlarni tizimli asosda boshqarib keldi. Dastlab birlashmani O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Xalq artisti Muhammadali Abduqunduzov, keyin san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor Omonulla Rizayev, so'ngra O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Valixon Umarovlar boshqardi. Har uchala rahbar davrida tashkilot muayyan rivojlanish yo'llarini bosib o'tdi. Jumladan, M.Abduqunduzov rahbarlik qilgan yillarda (1998-2003) "O'zbekteatr" tashkilotiga asos qo'yildi, uning ilk taraqqiyot yo'llari belgilab olindi. O'zbek teatri boshqaruvining yangi mezonlari ishlab chiqildi.

Tashkilotning rostmana shakllanish va rivojlanish davri esa O.Rizayevning boshqaruv yillari (2003-2013) ga to'g'ri keladi. Aynan shu davrdan o'zbek teatrining milliy modeli amaliyotga tatbiq etildi, boshqaruv mexanizmi va standartlari yanada takomillashdi. "O'zbekteatr" respublikadagi barcha teatrlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan birga, ularning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi, mahalliy va xalqaro festivallarda ishtirok etishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Valijon Umarov rahbarlik qilgan yillarda ham tashkilot bir qator yutuqlarga erishdi. Xususan, teatr san'atiga doir festivallar, seminar va mahorat darslari tashkil qilishga, yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasining faoliyati maqsadli va samarali yo'lga qo'yilganini tashkilot tizimidagi teatr direktorlarining uzoq yillar davomida mehnat qilgani va ijobiy yutuqlarga erishgani misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, O'zbek Milliy akademik drama teatrida O'zbekiston xalq artisti Yoqub Ahmedov, Buxoro viloyati musiqali drama teatrida O'zbekiston xalq artisti Ubaydullo Baqoyevlar fidoyilarcha mehnat qilib, teatrni rivojlantirishga katta hissa qo'shishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarova S. XX asr 20-30-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zbek sahna san'atiga ta'siri. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2024. – B.10.
2. Sayfullayev N. Yangi davr O'zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2011. – B.122-123.
3. Rizayev O. "Sahnada zamon ruhi". San'atshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami 2024. B.12.
4. Fayziyev T, Xolmo'minov M. Teatr faoliyatida boshqaruv jarayonlarini tashkil etish usullari // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. 2022 yil 2-son. – B.57.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori. Toshkent sh., 1998-yil 22-may, 223-son. // <https://lex.uz/docs/819775>.

